

**BODRINGNING NAV VA DURAGAYLARINI OCHIQ MAYDONDA
YETISHTIRISHNING AHAMIYATI.***Isaqova Kamila Isamiddinova**Toshkent davlat agrar universiteti magistranti*

Annotatsiya. *Ilmiy maqolada asosiy ekin sifatida bodring yetishtirishda, har xil yoshdagi ko‘chatlarini unuvchanligi ularning yoshiga bog‘liqligini o‘rganishga qaratilgan. Tajriba davomida bodring ko‘chatlarini har xil yoshdagi ko‘chatlari ochiq maydonga ekilib uarning tutuvchanligi va moslashib ketish jarayoni o‘rganilgan. Bunda asosan 10,15,20 kunlik ko‘chatlar ochiq maydonga ekilib nazorat sifatida bodring urug‘lariga nisbatan taqqoslangan. Shu bilan birga ochiq maydonda ko‘chatlarning eng yaxshi tutib ketishi 15 kunlik ko‘chatlarda boshqa yoshdigi ko‘chatlarga nisbatan yuqori natija ko‘rsatganligi kuzatilgan.*

Kirish Hozirda bodring yetishtirish hajmini ko‘paytirishga talab ham ortib bormoqda. Shu bois bodring yetishtirivchi yetakchi mamlakatlarda uning hosildorlikni oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Mamlakatimizda 2022 yili bodring 25 ming gektardan ortiq maydonlarda yetishtirilgan va yalpi mahsulot hajmi esa 853,1 ming tonnadan ko‘proqni tashkil etgan. Bu aholi talabini to‘liq qondiradi. Vaholanki, aholi sonini ortib borishi va mahsulot eksport hajmini kengayishi, mahsulotiga bo‘lgan talabni ham ortishiga olib keladi. Shuning uchun bodringni yangi yuqori hosilli, navlarini yaratish hamda bodringni ochiq maydonda yetishtirishning innovatsion texnologik elementlarini ishlab chiqishni taqazo etadi.

Ilmiy tadqiqot uslubi. Tadqiqotlarda dala tajribalarini o‘tkazishda fenologik kuzatuvlar, biometrik o‘lchovlar, bodringning har xil yoshdagi ko‘chatlarini dala tutuvchanligi bo‘yicha kuzatuvlar olib borildi. Kuzatuv va xisoblash ishlari umum qabul qilingan talablarga mos ravishda o‘tkazildi. Tajribalar 4 qaytariqda olib borildi.

Tadqiqot 2020-2022 yillarda Toshkent viloyati o‘rta chirchiq tumanida joylashgan AKES tajriba maydoida 300 m² maydonda amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi – bodringni asosiy ekin sifatida, ochiq maydonda yetishtirishda urug‘idan va har xil yoshdagi ko‘chatlarini tutuvchanligi va akklimatizatsiya jarayonini o‘rganishga qaratilgan.

Tadqiqot obekti sifatida bodringni “Sevinch” navi, “Fantina” G‘1, “Superina” F1 va “Beyt-Alfa” F1 duragaylari va bodring urug‘i va 10,15,20 kunlik ko‘chatlari tanlab olingan.


Tadqiqot natijasi tajribalarimiz davomi bodringning o‘rganilayotgan 4 nav duragaylarida, ochiq maydonga urug‘idan va har hil yoshdagi ko‘chatlaridan

ekilganda, har bir nav va duragaylarda qo‘yidagicha kuzatildi (1-rasm)

Ushbu diagrammadan ko‘rishimiz mumkinki bodringni Fantina G‘1 duragayi ochiq maydonga urug‘idan ekilganda va har hil yoshdagi ko‘chatlarni tutuvchanlik ko‘rsatkichlari tajribalarimizda kuzatilganda, urug‘lar ekilgandan so‘ng 5 chi kuni sanoq o‘tkazilganda urug‘larning 25 % tutganligi kuzatildi. Urug‘lar ekilgandan so‘ng 10 chi kuni sanoq o‘tkazilganda 90% va 15 chi kun ham sanoq o‘tkazilganda unuvchanlik 90% dan oshmaganligi kuzatildi. Bundan ko‘rinib turibdiki Fantina G‘1 duragayining o‘rug‘larining tutuvchanligi ochiq maydonda 90% dan oshmaganligi kuzatildi.

Bodringni Fantina G‘1 duragayining 10 kunlik kuchatlarini ochiq maydonda mosalashish jarayoni kuzatilganda dastlabki 5 chi kunda sanoq o‘tkazilganda ko‘chatlarning 80 % qolganli aniqlandi. So‘ngi 10 chi kuni o‘tkazilgan sanoqda 75 %, 15 kun o‘tgach esa 72% ko‘chatlar tutib qolganligi aniqlandi.

Bodringni Fantina G‘1 duragayining urug‘idan ekilgan va har hil yoshdagi ko‘chatlarning tutuvchanlik ko‘rsatkichlari % (2019-2022 y.y)



1-rasm. Fantina G‘1 duragayining urug‘idan ekilgan va har hil yoshdagi ko‘chatlarni tutuvchanlik ko‘rsatkichlari %. hisobida qayd etilgan. Ko‘chatlarni tutuvchanligi dastlabki 5, 10,15 kun davomida nazorat sanoqlari olib borilgan.

Ushbu Fantina G‘1 duragayining 15 kunlik tayyor ko‘chatlarining dala tutuvchanligi o‘rganilganda, ko‘chatlar ekilgandan so‘ng dastlabki 5 kunda sanoq o‘tkazilganda, ko‘chatlarni tutuvchanligi 100% ni tashkil etgan bo‘lsa, so‘ngi 10,15 kun o‘tgach 98 % ko‘chatlar tutganligi kuzatildi. Bundan aytish mumkinki ushbu duragayni, ochiq maydonda yetishtirishda asosan 15 kunlik ko‘chatlarini ekish yaxshi

samara berishi tajribalarimizda aniqlandi.


Fantina G'1 duragayining 20 kunlik tayyor ko'chatlarining ochiq maydonga moslashuv jarayoni kuzatilganda, ko'chatlar ekilgandan so'ng dastlabki 5 chi kun o'tkazilgan sanoqda, ko'chatlarni tutuvchanligi 75 % ni tashkil etgan bo'lsa, so'ngi 10,15 chi kuni o'tkazilgan sanoqda esa 70 % ko'chatlar tutganligi tajribalarimiz davomida kuzatildi. Bundan aytish mumkinki ushbu duragayni, 20 kunlik ko'chatlarini ochiq maydonda yetishtirishda samaradorlik past natija ko'rsatganligi aniqlandi.

Tajribalarimiz davomi ochiq maydonga ekilgan bodringning Superina G'1 duragayining urug'ining unuvchanligi va har xil yoshdagi ko'chatlarini dala tutuvchanligi va moslashuvi o'rganilganda qo'yidagi natijalarga erishildi. Dastlab urug'larni unuvchanligi bo'yicha kuzatuvlar olib borilganda urug'lar ekilgandan so'ng 5 chi kuni sanoq o'tkazilganda urug'larning unib chiqishi 33 % ni tashkil etgan bo'lsa, so'ngi 10,15 chi kunlari o'tkazilgan sanoqda 97 % urug'larning unib chiqqanligi kuzatildi.

Superina G'1 duragayining 10 kunlik kuchatlarini ochiq maydonda mosalashish jarayoni kuzatilganda dastlabki 5 chi kunda sanoq o'tkazilganda ko'chatlarning 85 % qolganli aniqlangan bo'lsa so'ngi 10 chi kuni o'tkazilgan sanoqda 79 %, 15 kun o'tgach esa 75% ko'chatlar tutib qolganligi kuzatildi (2-rasm),

Ushbu G'1 duragayining 15 kunlik ko'chatlarining dala tutuvchanligi kuzatilganda, ko'chatlar ekilgandan so'ng dastlabki 5 chi kunda sanoq o'tkazilganda, ko'chatlarni tutuvchanligi 100% ni tashkil etgan bo'lsa, so'ngi 10,15 kun o'tgach 97-98 % ko'chatlar tutib qolganligi kuzatildi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki ushbu duragayni, ochiq maydonda yetishtirishda asosan 15 kunlik ko'chatlarini ekish yaxshi samara berishi tajribalarimizda davomida kuzatildi.

Bodringni Superina G'1 duragayining urug'idan ekilgan va har hil yoshdagi ko'chatlarning tutuvchanlik ko'rsatkichlari % (2020-2022 y.y)



2-rasm. Superina G'1 duragayining urug'idan ekilgan va har hil yoshdagi ko'chatlarni tutuvchanlik ko'rsatkichlari % hisobida qayd etilgan. Ko'chatlarni tutuvchanligi dastlabki 5, 10,15 kun davomida nazorat sanoqlari olib borilgan.


Superina G'1 duragayining 20 kunlik tayyor ko'chatlarining ochiq maydonga moslashuv jarayoni kuzatilganda, ko'chatlar ekilgandan so'ng dastlabki 5 chi kun o'tkazilgan sanoqda, ko'chatlarni tutuvchanligi 76 % ni tashkil etgan bo'lsa, so'ngi 10,15 chi kuni o'tkazilgan sanoqda esa 70-71 % ko'chatlar tutganligini kuzatdik.

Ochiq maydonga ekilgan bodringning Beyt-Alfa G'1 duragayining urug'ining unuvchanligi va har xil yoshdagi ko'chatlarini dala tutuvchanligi va moslashuvi tajribalarimiz davomida qo'yidagi natijalar kuzatildi (3-rasm).

Bodring Beyt-Alfa G'1 duragayi urug'larni unuvchanligi bo'yicha dastlabki kuzatuvlar olib borilganda urug'lar ekilgandan so'ng 5 chi kuni sanoq o'tkazilganda urug'larning unib chiqishi 36 % ni tashkil etgan bo'lsa, so'ngi 10,15 chi kunlari o'tkazilgan sanoqda 97 % urug'larning unib chiqqanligi tajribalarimiz davomida kuzatildi.

Beyt-Alfa G'1 duragayining 10 kunlik kuchatlarini ochiq maydonda mosalashish jarayoni kuzatilganda dastlabki 5 chi kunda sanoq o'tkazilganda ko'chatlarning 88 % qolganli aniqlandi. So'ngi 10 chi kuni o'tkazilgan sanoqda 82 %, 15 kun o'tgach esa 79 % ko'chatlar tutib qolganligi kuzatilgan bo'lsa, ushbu duragayining 15 kunlik tayyor ko'chatlarining dala tutuvchanligi o'rganilganda, ko'chatlar ekilgandan so'ng dastlabki 5 kunda sanoq o'tkazilganda, ko'chatlarni tutuvchanligi 100% ni tashkil etgan bo'lsa, so'ngi 10,15 chi kunlar davomida ham 100 % ko'chatlar nobut bo'lmasdan tutganligi kuzatildi. Bundan aytish mumkinki ushbu duragayni, ochiq maydonda yetishtirishda asosan 15 kunlik ko'chatlarini ekish yaxshi samara berishi tajribalarimizda kuzatildi.

Bodringni Beyt-Alfa G'1 duragayining urug'idan ekilgan va har hil yoshdagi ko'chatlarning tutuvchanlik ko'rsatkichlari % (2020-2022 y.y)




3.-rasm. Beyt-Alfa G'1 duragayining urug'idan ekilgan va har hil yoshdagi ko'chatlarni tutuvchanlik ko'rsatkichlari %. hisobida qayd etilgan. Ko'chatlarni tutuvchanligi dastlabki 5, 10,15 kun davomida nazorat sanoqlari olib borilgan.

Beyt-Alfa G'1 duragayining 20 kunlik tayyor ko'chatlarining ochiq maydonga moslashuv jarayoni kuzatilganda, ko'chatlar ekilgandan so'ng dastlabki 5 chi kun o'tkazilgan sanoqda, ko'chatlarni tutuvchanligi 78 % ni tashkil etgan bo'lsa, so'ngi 10,15 chi kuni o'tkazilgan sanoqda esa 70-71 % ko'chatlar tutganligi tajribalarimiz davomida kuzatildi. Bundan aytish mumkinki Beyt-Alfa G'1 duragayi boshqa duragaylarga nisbatan urug'larning unuvchanligi va barcha yoshdagi ko'chatlarning tutuvchanligi nisbatan yuqori natija ko'rsatganligi kuzatildi.

Bodring Sevinch navi urug'larni unuvchanligi bo'yicha dastlabki kuzatuvlar olib borilganda urug'lar ekilgandan so'ng 5 chi kuni sanoq o'tkazilganda urug'larning unib chiqishi 36 % ni tashkil etgan bo'lsa, so'ngi 10,15 chi kunlari o'tkazilgan sanoqda 97 % urug'larning unib chiqqanligi tajribalarimiz davomida kuzatildi.

Sevinch navining 10 kunlik kuchatlarini ochiq maydonda mosalashish jarayoni kuzatilganda dastlabki 5 chi kunda sanoq o'tkazilganda ko'chatlarning 88 % qolganli aniqlandi. So'ngi 10 chi kuni o'tkazilgan sanoqda 82 %, 15 kun o'tgach esa 79 % ko'chatlar tutib qolganligi kuzatilgan bo'lsa, ushbu duragayining 15 kunlik tayyor ko'chatlarining dala tutuvchanligi o'rganilganda, ko'chatlar ekilgandan so'ng dastlabki 5 kunda sanoq o'tkazilganda, ko'chatlarni tutuvchanligi 100% ni tashkil etgan bo'lsa, so'ngi 10,15 chi kunlar davomida ham 100 % ko'chatlar nobut bo'lmasdan tutganligi kuzatildi. Bundan aytish mumkinki ushbu duragayni, ochiq maydonda yetishtirishda asosan 15 kunlik ko'chatlarini ekish yaxshi samara berishi tajribalarimizda kuzatildi (4-rasm).

Bodringni Sevinch navining urug‘idan ekilgan va har hil yoshdagi ko‘chatlarning tutuvchanlik ko‘rsatkichlari % (2020-2022 y.y)



4-rasm. Sevinch navining urug‘idan ekilgan va har hil yoshdagi ko‘chatlarni tutuvchanlik ko‘rsatkichlari %. hisobida qayd etilgan. Ko‘chatlarni tutuvchanligi dastlabki 5, 10,15 kun davomida nazorat sanoqlari olib borilgan

Sevinch navining 20 kunlik tayyor ko‘chatlarining ochiq maydonga moslashuv jarayoni kuzatilganda, ko‘chatlar ekilgandan so‘ng dastlabki 5 chi kun o‘tkazilgan sanoqda, ko‘chatlarni tutuvchanligi 78 % ni tashkil etgan bo‘lsa, so‘ngi 10,15 chi kuni o‘tkazilgan sanoqda esa 70-71 % ko‘chatlar tutganligi tajribalarimiz davomida kuzatildi. Bundan aytish mumkinki Beyt-Alfa G‘1 duragayi boshqa duragaylarga nisbatan urug‘larning unuvchanligi va barcha yoshdagi ko‘chatlarning tutuvchanligi nisbatan yuqori natija ko‘rsatganligi kuzatildi.

Xulosa Asosiy ekin sifatida ochiq maydonlarda bodiring yetishtirishda urug‘idan yetishtirishga nisbatan tayyor ko‘chatlardan yetishtirish yaxshi natijaga erishiladi. Bunda 15 kunlik ko‘chatlarning tutuvchanligi nazoratga ya‘ni urug‘idan ekilgan ko‘chatlarga va 10 kunlik hamda 20 kunlik ko‘chatlarga nisbatan dala tutuvchanligi yuqori bo‘lganligi kuzatildi. Navlar aro esa eng yaxshi ko‘rsatkich Beyt-Alfa G‘1 duragayi va Sevinch navida boshqa duragaylarga nisbatan yuqori natija ko‘rsatdi. Demak ochiq maydonga bodringni 15 kunlik ko‘chatlarini ekish yaxshi natija ko‘rsatadi vaekish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bo‘riyev X.CH. va boshqalar. //Ochiq joyda sabzavot ekinlari yetishtirishning progressiv texnologiyalari. – Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.

2. Ершова В.Л., Долготер В.И. Возделывание огурца. //Инфор. лист: Достижения науки и передового опыта – X1 пятилетке. – Кишинев, 1984.
3. Зуев В.И. и др. Огурцы и овощные тыквы. // Интенсивная технология возделывания овоще-бахчевых культур и картофеля. Учебное пособие – Ташкент Мехнат, 1987.
4. Зуев В.И., Абдуллаев А.Г. Бодринг ва ошқовоқлар. //Сабзавот экинлари ва уларни етиштириш технологияси. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
5. Арамов М.Х. Научный центр по селекции и семеноводству овощных культур на юге Узбекистана. // Основные направления и перспективы селекции семеноводства овощных, бахчевых культур и картофеля. Международная научно-практическая конференция.- 2-5 июля 2001. Тезисы докладов. – Ташкент-Термез, 2001.
6. Болотских А.С., Говорунов А.П. Индустриальные технологии выращивания и уборки интенсивных сортов огурца в УССР. – Киев: Укр.НИИНТИ, 1980.
7. Болотских А.С. Огурец. // Все об огурце. – Киев: Урожай. 2002.